

REPUBLIC OF UZBEKISTAN
MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIALISED
EDUCATION
BUKHARA STATE UNIVERSITY

English Linguistics Department

INTEGRATION OF PRAGMALINGUISTICS,
FUNCTIONAL TRANSLATION STUDIES AND
LANGUAGE TEACHING PROCESSES

(dedicated to the 75th anniversary of Candidate of Philological Sciences,
Associate Professor M.Kh.Alimova)

Proceedings of International Scientific-theoretical Webinar



2020-YIL
25-DEKABR



SOAT 10:00

Buxoro davlat universiteti Xorijiy tillar fakulteti Ingliz tilshunosligi kafedrası

PRAGMALINGVISTIKA, FUNKSIONAL TARJIMASHUNOSLIK VA TIL O'RGATISH JARAYONLARI
INTEGRATSIYASI"

(Filologiya fanlari nomzodi, dotsent M.H.ALIMOVA tavalludining 75 yilligiga bag'ishlanadi)
mavzusida tashkillashtirilgan Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman



QAYSI TILLARDA
O'ZBEK, RUS, INGLIZ



Manzil: Buxoro davlat universiteti,
Buxoro shahar M.Iqbol ko'chasi
11-uy.

BUKHARA -2020

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

Инглиз тилшунослиги кафедраси

**ПРАГМАЛИНГВИСТИКА, ФУНКЦИОНАЛ
ТАРЖИМАШУНОСЛИК ВА ТИЛ ЎРГАТИШ
ЖАРАЁНЛАРИ ИНТЕГРАЦИЯСИ**

(Филология фанлари номзоди, доцент М.Х.Алимова таваллудининг 75
йиллигига бағишланади)

**мавзусидаги Халқаро миқёсидаги ОНЛАЙН
илмий-назарий конференция материаллари
ТЎПЛАМИ**

2020 йил, 25 декабрь

**Бухоро
"Дурдона" нашриёти
2020**

УЎК 81'373

81.1-3

Г 13

Прагматингвистика, функционал таржимашунослик ва тил ўргатиш жараёнлари интеграцияси (Филология фанлари номзоди, доцент М.Х.Алимова таваллудининг 75 йиллигига бағишланади): мақола ва тезислар тўплами, тўпловчи ва нашрга тайёрловчи: М.А.Шукурова, О.И.Жумаева, И.И.Акрамов; Бухоро; “Дурдона” нашриёти, 2020 йил, 574 бет.

КБК 81.1-3

Тўпланда республикаимиз олимлари, катта илмий ходим-изланувчилари ва мустақил изланувчиларининг хорижий тилларда ўқув ва бадиий адабиётлар, электрон дарсликлар, ихтисослаштирилган расмлар билан безатилган газеталар ва журналларни яратиш ҳамда чоп этиш самарадорлигини ошириш, ёшларда чет тилни эгаллаш даражаларининг Европа тизими (CEFR)ни ўрганишнинг ўрни, ёшларга чет тилини ўргатишнинг психологик аспектлари, чет тилини ўрганишда тил хусусиятларининг аҳамияти ва муаммолари, тил ва маданиятлараро коммуникация методлари, тилшунослик ва адабиётшунослик масалалари, услубшунос олимларнинг илғор тажрибаларининг роли каби масалалар талқинига бағишланган мақолалари ўз ифодасини топган. Тўпланда тил муаммолари билан қизиқувчи илмий ходимлар, катта илмий-ходим изланувчилар, мустақил тадқиқотчи-изланувчилар, магистрантлар ва ўқувчилар фойдаланишлари мумкин.

Тахрир хайъати:

Проф. О.Х.Хамидов, доц. О.С.Қаҳҳоров, проф. М.Қ.Бақоева, проф. Д.С.Ўраева, доц. М.М.Жўраева, доц. З.И.Расулов (масъул муҳаррир), М.А.Шукурова (масъул котиба)

Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи:

Инглиз тилшунослиги кафедраси ўқитувчилари: М.А.Шукурова,
О.И.Жумаева, И.И.Акрамов;

Такризчилар:

Филология фанлари номзоди, доцент М.Х.Алимова
Филология фанлари номзоди, доцент Н.Б.Бакаев
Филология фанлари номзоди, доцент З.Б.Тошев

Тўплам БухДУ Хорижий тиллар факультети кенгашида муҳокама қилинган ва нашрга тавсия қилинган (2020 йил 24 декабрдаги 5-сонли баённома)

ISBN 978-9943-6197-4-6

<i>Ro'ziyeva D.S.</i> Intellectual novel.....	262
<i>Саъдуллаева Л.Б., Бахтиёрлов А.Ф.</i> “Shirley” асариди реалистик роман хусусиятларининг ифодаланиши.....	265
<i>Usmonova M.A.</i> Asar personajlari va tabiat tasvirida qo'llanilgan leksik-stilistik vositalarning roli va vazifasi. (“The Physician” romani tahlili asosida).....	270
<i>Usmonova Z.Kh.</i> The allegoric characters in Faulkner's “A Fable”.....	274
<i>Ниязова М.Х.</i> Ўзбек алла қўшиқларида олқиш мавзулари.....	278
<i>Ғаниева О.Х.</i> Жон Стейнбек ижоди жаҳон адабиётшунослари нигоҳида.....	281
<i>Очилова Н.Ў., Убайдуллаева Ф.</i> Анималистик адабиётда “от” образи.....	285
<i>Аминова Е.А.</i> Функциональные особенности американского студенческого сленга.....	288
<i>Usmonova Z.H., Tojibeva F.K.</i> Mesmerising blend of love, spirituality and religion in the novel of Elif Shafak “Forty rules of love”.....	291
<i>Sadullaeva M.A.</i> Numbers and their symbolic significance in the East.....	293
<i>Djumayeva N., Bobokhodjaeva Z.</i> Magical items helping main heroes in English fairy tales.....	298

3-ШҲҒБА: ГЛОБАЛЛАШУВ ДАВРИДА ҚИЁСИЙ ТИЛШУНОСЛИК ВА ТАРЖИМА МУАММОЛАРИ

<i>Маматов А.Э.</i> Провербильные фразеологизмы как средство формирования навыков межкультурной коммуникации.....	302
<i>Alimova M.Kh., Gaybullayeva Kh.M.</i> Pragmatic approach to the linguo-cognitive analysis of the concept “Father” in the English and Uzbek languages.....	304
<i>Qosimova N.F., Sharipova M.U.</i> Ingliz va o'zbek tillari “rang” komponentli frazeologizmlarida antroposentrizm ifodasi	307
<i>Khayrullayeva N., Eshonqulova N.</i> Ingliz va o'zbek tillarida so'zlarning leksik va grammatik ma'nosi qiyosiy tahlili.....	310
<i>Абдуллаева Н.О.</i> Инглиз ва ўзбек тилларида фразеологизмларнинг лингвимадания хусусиятлари.....	314
<i>Абдуллаева Н.О.</i> Инглиз ва ўзбек тилларидаги мақолаларидан олинган мисоллар асосида стилистик даражаланиш.....	317
<i>Abdullayeva G.G.</i> Yosh tarjimonlarda sinxron tarjima qilish ko'nikmalarini shakllantirish usullari.....	320
<i>Ибрагимова Г.Р.</i> Таржимада когнитив диссонанс феномени.....	325
<i>Axmedova S.H., Razoqova K.</i> Ingliz va o'zbek xalq ertaklari qiyosiy tahlili («The Little Bull-Calf» va «Bo'z bola» ertaklari misolida).....	328
<i>Ниязова М.Х., Оромова М.У.</i> Ўзбек ва инглиз муножот шеърларида олқишларнинг қиёсий таҳлили.....	331
<i>Safoyeva S., Abdullayeva D.</i> Tarjima jarayonida ikki tilning o'zaro muqobilligi.....	333
<i>Санакулов З.И.</i> Композитанинг луғатларда акс этириш тамойиллари.....	336

<i>Tashpulatova V.I.</i> Pragmatic solution of translation in linguacultural adaptation.....	341
<i>Quvvatova Sh.</i> Ingliz-o'zbek tarjima jarayoni debochasi.....	343
<i>Бабаев М.Т., Бабаева В.Т.</i> Чет тилларини ўрганишда таржиманинг аҳамияти ва роли.....	348
<i>Раджабова М.А.</i> Ономастик таркибли фразеологизмларнинг таржимашуносликдаги ўрни.....	351
<i>Zokirova N.S., Bahodirova M.</i> Adequacy and Equivalence in translation studies.....	356
<i>Kobilova A.B., Sidikboeva G.</i> Representatives of the first and second stage of comparative studies.....	361
<i>Саидова М.У.</i> Инглизча адабиётшунослик терминларини ўзбек тилига таржима қилиш масалалари.....	365
<i>Navruzova N.H.</i> Kombinator va pozitsion fonetik o'zgarishlar (Ingliz va o'zbek tillari misolida).....	368
<i>Тилова Г.А.</i> Немис ва ўзбек тилларида ўрмончилик терминларининг диахрон ва синхрон тадқиқи.....	370
<i>Шарипова М.Ш.</i> Она тили ва чет тилини киёслаб уқитиш орқали эстетик дунёкарашни шакллантириш масалалари.....	374
<i>Каримов Р.А.</i> Ўзбек-инглиз параллел корпусида бирликларнинг турли структуралар билан ифодаланиши ва уни параллеллаш масаласи.....	380
<i>Каримов Р.А.</i> Реалияларнинг таржимада берилиши ҳамда унинг параллел корпусда ифодаланиши.....	384

4-ШЎБА: ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ЎҚИТИШНИНГ ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ

<i>Akobirova Z.R.</i> Overcoming challenges for International students in the United States universities: English language proficiency and academic success.....	389
<i>Ахмедов Б.Я.</i> Формирование у учащихся навыков языковой догадки.....	391
<i>Abdujabbarova Z.R.</i> Chet til o'qitish qiyosiy metodikasi xususida.....	395
<i>Аҳмедова Н.М.</i> Бўлажак инглиз тили ўқитувчиларининг касбий тайёргарлигини интеграциялаштиришнинг инновацион технологиялари.....	400
<i>Abdullayeva N.O., Gulyamova M.</i> O'quvchi ta'limning tuzilishida ota-onalarning pedagogik ta'limi tizimining roli.....	405
<i>Abdullayeva G.G., Nasriyeva Sh.F.</i> Personality factor as one of the main issues influencing language learning.....	407
<i>Fayzullayeva A.I., Djurayeva D.R.</i> Ingliz tili o'qitishda multimedia vositalaridan foydalanish samaradorligi.....	412
<i>Nazarova G., Sharipova G.</i> Enhancing students' speaking skills through the technique "Debate".....	414

xos tarzda o'zgartira olmaydi. Biroq ma'noviy jihat to'g'ridan-to'g'ri emas, balki muayyan oraliq grammatik ma'nosi orqali nutqqa chiqadi, xususiy holda namoyon bo'ladi. *-gan* shaklining fe'lni aniqlovchi sifatida nutqqa olib kirishga asos bo'luvchi sintaktik imkoniyati borligini ham qayd etishimiz mumkin bo'ladi: Uning *qaltiragan* qo'llarida uzoq yillik og'ir mehnat chizgilari ko'rinib turardi.

Xulosa qilib aytganda, so'z turkumlari yuksak lug'aviy umumlashtirish, so'zlarni umumiy belgilari asosida birlashtirish natijasi bo'lsa, grammatik ko'rsatkichlarning bir qismi leksik va bir qismi sintaktik ahamiyatga egadir. Demak, tilshunos I.I.Meshchaninov ta'biri bilan aytganda, "So'z, aslida, leksik va grammatik jihatlar birligidir". Shunday ekan, so'zning leksik va grammatik ma'nolari har bir tilda o'ziga xoslik kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abduazizov A. Tilshunoslikka kirish. Toshkent "O'qituvchi" 1981
2. Arnold, Jennifer E. Reference form and discourse patterns. Stanford 1998
3. Bahridinova B. Hozirgi zamon o'zbek tili (qo'shimchalar tasnifi yuzasidan materiallar). Monografiya. Qarshi. Nasaf, 2004
4. Usmonov.S. Umumiy tilshunoslik. O'quv qo'llanma – T.: O'qituvchi. 1972.

ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАРНИНГ ЛИНГВОМАДАНИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ

*Н.О.Абдуллаева
(БухДУ)*

Annotation. In this article we consider the linguistic and cultural features of phraseological units using the example of two languages.

Аннотация. Ушбу мақолада биз фразеологик бирликларнинг икки тил мисолида лингвомаданий хусусиятлари ҳақида фикр юритамиз.

Аннотация. В данной статье мы рассматриваем лингвокультурологические особенности фразеологизмов на примере двух языков.

Key words: Phraseology, phraseological units, stable compounds, emotionally-expressive meaning.

Калит сўзлар: Фразеология, фразеологик бирликлар, турғун бирикмалар, эмоционал-экспрессив маъно.

Ключевые слова: Фразеология, фразеологизм, стабильные соединения, эмоциональное-экспрессивное значение.

Жаҳон тилшунослигида бошқа тил соҳалари қаторида фразеология илми ҳам алоҳида фан соҳаси сифатида ривожланиб бормоқда. Фразеологик бирликлар тузилиш жиҳатдан сўз бирикмасига, гапга тенг, семантик жиҳатдан бир бутун, умумлашган маъно англатадиган, нутқ процессида

яратилмай, тилни нутққа тайёр ҳолда қаратиладиган луғавий бирлик. Турғун бирикмаларнинг образли, кўчма маънога эга тури⁸⁸. Фразеологик бирликлар икки ва ундан ортиқ сўзларнинг турғун бирикишидир. Фразеологик бирликлар таркибида нечта сўз бўлишига қарамай, улар ягона умумий маъно билан бирлашади ва эмоционал –экспрессив маънони ифодалайди.

Фразеологик бирликларни атрофлича ва ҳар томонлама ўрганишда рус тилшунослари В.В.Виноградов, А.Х.Молотков, Е.И.Диброва, З.Г.Ураксин, ўзбек тилшуносларидан Ш.Раҳматуллаев, Б.Йўлдошев, А.Маматов, Ш.Алмаматовларнинг хизматлари улкандир.

Инглиз тилшунослигида эса А.В.Кунин мавжуд фразеологик бирликларнинг ўзига хос хусусиятларини очиқ берган. У фразеологик бирликларни гуруҳларга бўлиб ўрганди. А.В.Кунин фикрича, “Фразеологик бирликлар бутунлай” ёки қисман кўчма маънони турғун бирикмалардир.⁸⁹ Шунингдек, фразеологик бирликлар бадиий адабиётда образ таъсирчан восита сифатида кўп ишлатилади.⁹⁰

Фразеологизмлар дунёнинг барча тилларига хос ҳодисалар. Фразеологизмлар бўйича турли тилларда тадқиқотлар амалга оширилган. Фразеологизмларнинг моҳиятини англашга бўлган қизиқиш инглиз ва ўзбек тилларидаги фразеологизмларни қиёслаб, уларнинг семантик хусусиятларини ўрганишга ундади. Бунда фразеологизмларнинг семантикаси бўйича олимлар томонидан айtilган фикрларга таяндик.

Ўзбек тилидаги фразеологизмлар бўйича Ш.Раҳматуллаев илмий изланишлар олиб борган. Олим фразеологик бирликларни семантик жиҳатдан тасниф этиб, уларни уч турга ажратган: фразеологик бутунлик, чатишма ва қўшилма. Ш.Раҳматуллаев фикрига кўра, таркибидаги сўзларнинг маъноларига боғлиқ, шуларга асосланган умумлаштирувчи кўчма маъноли иборалар фразеологик бутунлик деб аталади. Масалан: тўйдан олдин ногора қокмоқ, ер билан осмонча...

Демак, Ш.Раҳматуллаев фикрича, иборадан англашиладиган маъно унинг таркибидаги сўзларнинг маъноларига боғлиқ эмас, шулардан келиб чиқмайди ҳам. Иборанинг маъноси билан таркибидаги сўзлар маънолари орасида потенциал боғланиш ҳам йўқ. Бундай иборалар фразеологик чатишмалар деб аталади. Масалан: оғзи қулоғида, тўнини тесқари қийиб олмоқ, қўлтиғидан тарвузи тушиб кетди, ҳафсаласи пир бўлди.

Ўзбек тилида иборанинг компонентларини алмаштириб бўлмаслик фақат фразеологик чатишмаларгагина ҳосилдир.

Ш.Раҳматуллаев фразеологик бирликларни семантик маъно муносабатига кўра яна бир турга-фразеологик қўшилмаларга бўлган. Компонентлардан бирининг кўчма маъносига асосланадиган ва

⁸⁸Хожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. -Т.:Ўқитувчи.1985.-Б.104.

⁸⁹Кунин А.В. Англиский словарь.-М. Ж Русский язык.1984.-С46 ологичео –русский фразе

⁹⁰Смит Л.П. Фразеология английского языка.-М.:1959.-С.96

компонентларига хос мустақил маъно марказларини сақлаб қоладиган уюшмалар фразеологик қўшилмалар деб аталади.

Масалан: оғир йигит, боғнинг гули, гапнинг тузи; ақли бор чайнайди гапнинг тузини,

Ақли бор чайнайди гапнинг тузини гапини таҳлил қилиб чиқайлик. Ушбу фразеологик бирикмадаги туз сўзи алоҳида олинганида гапнинг тузи уюшмасидаги маъносини англатмайди, балки ошга соладиган тузни билдиради. Чунки гапнинг тузи уюшмасидан ҳосил бўладиган қаймоғи, мағзи каби маънолар бевосита туз сўзининг ёлғиз ўзига эмас, балки шу уюшма таркибидаги ҳар икки сўзга боғлиқдир.

Фразеологик чатишма-маъноси составидаги сўзларнинг маъносидан келиб чиқмайдиган, ҳатто унга зид маъно ифодаладиган фразеологик бирликлар.⁹¹

Ўзбек тилида “ҳордиқ чиқармоқ”, “ҳолдан тоймоқ” каби фразеологизмлар фразеологик қўшилмалардир. “Кўкка кўтарилмоқ”, “Эти суякка ёпишган (озгин) каби фразеологизмлар бутунликлар ҳисобланади. “Сичқонни инини ижарага олмоқ ижарага олмоқ”, “тегирмонни тушса бутун чиқмоқ” фразеологизмлари фразеологик чатишмалар сирасига киради.

Инглиз тилида эса фразеологик бирликлар семантикасида тил эгаси бўлган халқнинг турмуш тарзи, урф-одатлари, маданияти, ўтмиши ва воқеликка муносабати кабилар акс этади.

Масалан: a good drunk-a large quantity

Hard drinks-strange alcoholic

A high wind-a strong wind

Инглиз тилида компаратив фразеологик бирликлар ҳам мавжуд. Улардан турли мақсадларда фойдаланиш мумкин. Ўта кўп овқат ейдиган кишиларга нисбатан қуйидаги фразеологик бирликлар ишлатилади:

As greedy as a wolf- “бўридай оч”;

As greedy as a dog- “итдай оч”.

Гавдаси ўта семиз кишиларга нисбатан “as fat as a butter”, “as fat as a pig” каби фразеологик бирликлар ишлатилади. Бир сўзнинг тўғри ва кўчма маънолари кўпинча унинг бошқа-бошқа сўзлар билан бирикиб келиши натижасида реаллашади. Масалан:

Тўғри маънолар учун мисол: уйнинг эшиги, нордон-нордон мевалар.

Кўчма маъно: бахт эшиги, нордон-нордон гаплар.

Тилдаги мавжуд фразеологизмлар асосан миллий негиз асосида пайдо бўлади. Миллий-маданий фразеологизмлар қуйидаги омиллар асосида шаклланади:

1. Ижтимоий-тарихий омиллар асосида;

2. Халқ ижоди асосида;

3. Инсонларнинг кундалик ҳаёти, расм-русуми ва урф-одатлари билан боғлиқ омиллар асосида.⁹²

⁹¹Ҳоҷиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати.-Т.:Ўқитувчи.1985.-Б.104-105

Ижтимоий-тарихий омиллар асосида пайдо бўлган фразеологизмлар ижтимоий-тарихий омиллар асосида юзага келиб, ўтмиш ва тарихий воқеа-ходисалар билан бевосита боғлиқ бўлади.

Масалан: “meet ones waterloo”-энг сўнгги зарба(мағлубиятга учрамоқ). Тарихдан маълумки, 1815 йилда француз қўмондони Наполеон Ватерло олдида энг сўнгги қақшатқич зарбага учрайди.

Халқ ижоди асосида шаклланган фразеологик бирликлар афсона,хикоя ва ривоятлар, болалар ўйини ҳамда сўз ўйинлари асосида юзага келади.

Масалан:”Harley street”-“шифокорлар”. Лондоннинг тиббиёт олами-Харли стрит кўчасида Лондоннинг машҳур шифокорларининг касалхоналари жойлашганлиги сабабли ушбу ибора пайдо бўлган.

Шундай қилиб, фразеологизмлар миллий характерга эгаллиги билан ажралиб туради, улар ҳар бир халқнинг ўз менталитетидан келиб чиқади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

- 1.Ҳожиёв А.Лингвистик терминларнинг изоҳли луҳати.-Т.:Ўқитувчи.1985.-Б.104
- 2.Кунин А.В.Англо-русский фразеологический словарь.-М.:Русский язққ.1984.-С46
- 3.Уразметова А.В.Топонимик компонентли фразеологизмларнинг лингвокультурологик аспекти.Филология фанлари номзоди дис.УФА.2006-Б.196

ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДАГИ МАҚОЛАЛАРИДАН ОЛИНГАН МИСОЛЛАР АСОСИДА СТИЛИСТИК ДАРАЖАЛАНИШ

*Н.О.Абдуллаева
(БухДУ)*

Annotation. In this article we are told about the lexical hierarchy in the Uzbek and English languages in the journalistic style, the hierarchy in phraseology.

Аннотация. Ушбу мақолада биз публицистик услубдаги ўзбек ва инглиз тилларида лексик даражаланиши, фразеологизмларда даражаланиши ҳақида берилган.

Аннотация. В статье рассказывается о лексической иерархии в узбекском и английском языках в публицистическом стиле, иерархии во фразеологии.

Key words: Style situation, journalistic style, will be displayed.

Калит сўзлар: Услуб-вазият, публицистик услуб, намоён бўлади.

⁹²Уразметова А.В. Топонимик компонентли фразеологизмларнинг лингвокультурологик аспекти. Филология фанлари номзоди дис. УФА. 2006-Б. 196